

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS**“MASHAQQATLAR GIRDOBI” ROMANIDA AYOL
RUHIYATINING BADIY TALQINI (GULRUH OBRAZI MISOLIDA)****Sadullayeva Darmonjon***Urganch davlat universiteti magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zulfiya Qurolboy qizining “Mashaqqatlar girdobi” romanidagi Gulruh obrazni, uning psixologizmi, ushbu obrazni gavdalantirishda adiba mahorati va iste’dodi haqida so’z boradi. Ushbu obrazning xarakter va tipik belgilar, portreti tasviri borasida fikr-mulohazalar beriladi.

Kalit so‘zlar: obraz, ruhiyat, badiiy psixologizm, mahorat, iste’dod, xarakter, qahramon, psixologik qifofa.

Аннотация: В статье рассматривается образ Гулрух в романе Зульфии Куролбой дочь «Машаккатлар гирдоби», ее психологизм, а также мастерство и талант писательницы в воплощении этого образа. Даны комментарии к характеру и типичным чертам этого персонажа, а также к изображению его портрета.

Ключевые слова: образ, психика, художественная психология, мастерство, талант, характер, герой, психологический образ.


Abstract: This article discusses the image of Gulrukh in Zulfiya Kurolboy kizi's novel "Mashaqqatlar girdobi", her psychologism, the writer's skill and talent in embodying this image. Comments are given on the character and typical features of this image, as well as the depiction of her portrait.

Keywords: image, psyche, artistic psychologism, skill, talent, character, hero, psychological image.

Barchamizga ma’lumki, adabiyotning o’rganish obyekti badiiy asar hisonlanib, uning markazida esa inson obrazi turadi. Yozuvchi ushbu obrazni yaratishda hayotiy voqeahodisalarga tayanadi. Adabiyot janrlari orasida inson taqdiri, hayotini tasvirlash, asarda estetik idealni yaratishda roman janrining o’ziga xos ahamiyati mavjud. Xususan, To’xta Boboyev ta’kidlaganidek, “Romanda individual tasvir prizmalari orqali ijtimoiy hayotning, xalq turmushining u yoxud bu jihatlari badiiy tadqiq qilinadi.”⁵³ Ko‘rinadiki, jamiyatdagi voqealarni to‘la bayon etish, illatlarni ko‘rsatish va voqeahodisalarga yozuvchi yaratgan obraz ruhiyati orqali baho berish ham ushbu janrga xosdir. Romanda inson obrazi gavdalantirilar ekan, unda badiiy psixologizmning yorqin ifodasi asar mavzu va mavqeyini baholashda muhim o’rin tutadi.

Badiiy asarda badiiy psixologizm asar ta’sirchanligini ta’minlovchi, retsepientga ruhiyatiga va ongiga ta’sir o’tkazuvchi muhim omil hisoblanadi. “Badiiy psixologizm”,

⁵³ Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –T.: “O’zbekiston”, 2002. –B.465



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

“psixologik tahlil”, “qalb dialektikasi”⁵⁴ kabi atamalar bilan ham yuritiluvchi ushbu unsur obraz ruhiyatini ochish hamda ushbu ruhiy holatni kitobxonning ham ruhiyatiga singdira olgani uchun nasrda uning o‘rni juda sezilarli bo‘ladi va asar qiymatini belgilab beradi. Zulfiya Qurolboy qizining “Mashaqqatlar girdobi” romanida ham asarning badiiy ta’sirchanligini oshiruvchi, obraz portretini yaratuvchi, adiba xarakteri va iste’dodini ko‘rsatuvchi badiiy psixologmning yorqin ifodasini ko‘rishimiz mumkin.

Asarda chet elga ishslash maqsadida ketgan, ammo shaxsini tasdiqlovchi hujjat hamda pullarini o‘g‘irlatishganligi sababli notanish kimsalarning qo‘lida kam maosh evaziga ishslashga majbur bo‘lgan insonlar taqdiri, ularning boshdan kechirganlari qalamga olingan. Asar bosh qahramoni Davron ham chet elga ishslash uchun ketib hujjatlari va pulini yo‘qotib qo‘ygach, quyuq o‘rmonlar orasida joylashgan qurilishga kelib qoladi. Bu yerdagi ish beruvchilar ularga ma’lum miqdorda maosh berilishi, qolgan pullar ularning oila a’zolariga jo‘natilishini aytib, ularni mehnatidan foydalanishadi. Bir qarasa qamoqxona, bir qarasa kimsasiz orolday tuyulayotgan bu joy Gulruh kelgandan so‘ng Davronning hissiyotlariga qo‘shilib o‘zgara boshlaydi: “Barakda allaqanday jonlanish yuz berdi. Pala-partish, janjalkash, so‘kong‘ich-u juldurvoqi erkaklar galasi favqulodda hodisa yuz bergandek kutilmaganda to‘satdan o‘zgarib qolishdi. Ustara nimaligini unutib yuborgan yanoqlarga ustara tegdi. O‘rin-to‘shak har kuni ertalab yig‘ilib, kechasi yoziladigan bo‘ldi”⁵⁵. Asl kasbi hamshiralik bo‘lgan Gulruh bu yerdagi odamlarni davolashni boshlaydi. Davronning qo‘li yiringlab ketgani sababli Gulruh unga tibbiy yordam ko‘rsatadi. Ish boshqaruvchilar orasida qattiqqo‘lligi, ishchilarga nisbatab shafqatsizligi bilan ajralib turadigan obraz – Po‘lat Damirovich ham bu ayolga nisbatan o‘zgacha muomalada bo‘ladi. Ammo ayol hech kimga parvo qilmasdan o‘z ishini sidqidildan bajarardi. Adiba Gulruh obrazini o‘zgacha, ya’ni o‘sha yerda ishlovchi Nargiza va Sanobarning yonida u tamoman o‘zga olam, betakror go‘zal va yoniga yo‘lab bo‘lmaydigan darajada mag‘rur ayol sifatida tasvirlaydi. “ – Agar xo‘p desangiz, sizga uy olib berardi. Xuddi xotinimday hamma narsa bilan ta’minlayman. Eng muhim, ozod bo‘lasiz!

- “Xuddi xotinimday...” dedingizmi? Po‘lat Damirovich, menga hech narsaning keragi yo‘q. Yaxshisi, tinch qo‘ying meni!
- Nahotki ozodlik ham sizni qiziqtirmasa?
- Bunday ozodlikning menga keragi yo‘q!”⁵⁶

Ayol o‘zidagi g‘urur, poklik, vafo va erkinlik tuyg‘ularini ozodlikdan ham ustun qo‘ya oladi. Balki shu sababli ham uni sevib qolgan erkaklar undan uzoqlashish o‘rniga aksincha yanada yaqin bo‘lishga, uning ko‘nglini olishga harakat qilishardi. Po‘lat Damirovich Sanobar va Nargizani Gulruhni unga turmushga chiqishiga rozilik olib berishsa, ularni ozod qilishini, uyiga ketishlariga yordam berishini aytadi. Ayollar

⁵⁴ Boboxonov Mavlon. “Hozirgi o‘zbek qissachiligidagi psixologizm” dissertatsiyasi

⁵⁵ Zulfiya Qurolboy qizi. Mashaqqatlar girobi. www.ziyouz.com. –B.32

⁵⁶ Zulfiya Qurolboy qizi. Mashaqqatlar girobi. www.ziyouz.com. –B.116

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Gulruhga bu taklifni bergenlarida, ayol bu gapni aytganlariga pushaymon qildiradi. Gulruhning shunday taklifga rozilik bermagani Davronni yanada hayratda qoldiradi va quvontiradi.

Gulruh o‘zini xafa qildirib qo‘ymaydigan, har qanday o‘ziga nisbatan aytilgan kesatiq gaplarni yaxshi anglagan holda ularga kinoyali javob qaytara oladigan obraz sifatida gavdalantiriladi. Xususan, Aleksandra Pavlova bilan bo‘lgan suhbatda ayol erining ish joyiga turli yerdan pul ishslash maqsadida kelgan yengil tabiatli ayollarning ko‘payib ketayotgani, tabiatan ayollarga suyagi yo‘qroq erining ularga ilakishib ketishi, xiyonat qilishidan xavotirda ekanligi haqida Gulruhga aytadi. Aslida bir ayolning sha’niga tegish, uni kamsitish maqsadida aytilgan gaplarga nisbatan Gulruhning hozirjavobligi va o‘tkir ma’noli gaplari bu ayolni gangitib qo‘yadi:

“ –Eringiz suyuqligini bila turib hazar qilmasdan uni qanday qabul qilasiz?!

Gulruh tomonidan favqulodda berilgan bu savol Aleksandra Pavlovani gangitib qo‘ydi. U miltig‘i tob yegan ovchiday qizarib bo‘zardi. Madad kutib Kseniya Sergeyevnaga qaradi.

Ha, bizdek “kelgindilar”ga nisbatan oldindan til biriktirib olgan ayollar Gulruhning kesatiqlariga munosib javob qaytarishini, ayniqsa bunaqangi tagdor gap bilan “o‘yib olishini” kutishmagandi. Balki shu sabablidir, Gulruhning gapi yanada keskinroq jarangladi⁵⁷


Asl kasbi xirurglik bo‘lgan, ammo bir xatosi sababli kimningdir umriga zomin bo‘lgach boshqa operatsiya qilmasligiga qasam ichgan Gulruh oyog‘i yiringlab ketgan 20 yoshli Alisherni o‘zi operatsiya qilishga majbur bo‘lish holatida ayolning o‘ziga xos matonati va mardligiga guvoh bo‘lamiz. Zamonaviy asbob-uskunalar, yordamchi shifokorlar bo‘limgan bu maskanda bir insonni oyog‘ini saqlab qolish, uning qolgan umrini majruhlikda o‘tkazmasligiga ko‘maklashish uchun jur‘at topish har qanday ayolning ham qo‘lidan kelavermaydigan ish hisoblanadi. Bir necha soatlik operatsiyani yolg‘iz o‘zi tugallagan Gulruhning ruhiy holati va qiyofasi Davron tildan “Ayni zamonda Gulruhning ko‘zlarida shu qadar jur‘at, shaylik va matonat mujassam ediki, beixtiyor ham havasim keldi, ham hayratim ortdi”⁵⁸ deya tasvirlanadi. Bundan ko‘rishimiz mumkinki, ayol ich-ichidan qo‘rquv iskanjasida bo‘lsan ham, mashaqqatli sinovlarni boshidan o‘tkazgan bo‘lsa ham o‘z holatini har kimga ayon qilishdan, ko‘rsatishdan o‘zini tiya oladi. Bu esa ayollarga xos sirlilik hamda matonat tuyg‘ularining umumlashma ifodasi bo‘la oladi.

Kutilmagan vaziyat voqealar rivojini butunlay boshqa tomonga o‘zgartirib yuboradi. Davron kazarmada paytida Po‘lat Damirovichning medpunkt eshigi oldida mast holda uxlab yotganning guvohi bo‘lgan Aleksandra Pavlova erining bu qilmishi uchun sevgilisi bilan birga jazolashini, ularni qora yer bag‘riga yuborishini aytib tahdid qiladi. Ko‘nglida Gulruhga nisbatan iliq hislari bo‘lgan Hakim Nazarich esa bu voqeaga befarq qarab

⁵⁷ Zulfiya Qurolboy qizi. Mashaqqatlar girobi. www.ziyouz.com. –B.127

⁵⁸ Zulfiya Qurolboy qizi. Mashaqqatlar girobi. www.ziyouz.com. –B.130

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

turolmay, Davronga Gulruhni omonat qilib topshiradi. Ularning o‘z yurtiga qaytishi uchun chipta va pul berib jo‘natadi. O‘zi ham qachondir Gulruhni izlab borishini, u davronga “omonat” ekanligini aytadi. Aslida Hakim Nazarich qurilish kompaniyasida ish beruvchi bo‘lib, unga har oy qurilish uchun kata mablag‘ ajratilar, ammo u ko‘proq pul topish maqsadida noqonuniy yo‘l bilan kelib qolgan migrantlarni arzimagan maosh evaziga ishlata digan xudbin kimsa edi. Vaqt o‘tib shu kimsa bir ayol sababli o‘z xatolarining anglab yetdi va tuzatishga qaror qildi. U barakda ishkayotgan ishchilarning hammasini hujjatlarini qaytarib beradi va ularga pul berib uylariga jo‘natadi.

Davron va Gulruh o‘z uyiga qaytgach ularning hayoti o‘nglana boshlaydi. Garchi Davronning ayoli Saodat erini kutmasdan boshqa insonga turmushga chiqqan bo‘lsa-da, Davron hayotida Gulruhning borligi sababli bu voqealarda dili xira bo‘lmaydi. “Men baxtiyor edim. Gulruh ham xursand edi: menga nigohi tushganida ko‘zlar quvonchdan porlab ketardi”⁵⁹. Ayolning ko‘zlarida porlayotgan quvonchda Davronga nisbatan ko‘nglidagi samimi hislar, mehr-muhabbat tuyg‘larini ilg‘ab olish qiyin emas edi. Shunday baxtiyor kunlarning birida Hakim Nazarich Davronga topshirgan “Yolg‘iz otinchi, omonati”ni izlab keladi. Ular Gulruhning ishxonasiga borib, ayolning ishdan chiqishini kutib turishadi. Ishdan chiqqan Gulruh Hakim Nazarichni ko‘rib xursand bo‘lgani Davronning g‘azabini keltirar, un qayg‘uga solardi. Bu paytda u o‘z sevgisidan ayrılb qolishidan, “omonat”ni egasiga topshirishga majbur bo‘lishidan, baxtli kunlari yakunlanishidan xavotirlanayotgan edi. Gulruhning yerga qarab turishi hamda Hakim Nazarichning kuyib-pishib nimalarnidir ayolga tushuntirayotgani uni battar xavotirga qo‘yardi. Ammo bir mahal barchasi Davronning o‘y-firki, xayolidagidan o‘zgacha tus oladi: “Ko‘zlarimga ishonmasdim! Bu qachin ro‘y bergeniga aqlim bovar qilmasdi! Gulruh, nozik-nihol malagim, suv yuzida suzib yurgan nilufarim men tomon shamoldek yelib kelardi!...

Men Gulruh tomon otildim...”⁶⁰

Romanning shunday yakuni kitobxonni hayajonlantrib yuboradi. Sababi ikki sevishgan qalbning niyoyat birga bo‘lishi, sevgisini tan olishi mashaqqat va uzoq vaqt talab qilgan edi. Bu sevgi ularga ancha dars berdi, qiyinchiliklarni ko‘rsatdi va shu qiyinchiliklar orqali ularning matonatini ham sinadi. Odam oyog‘idan uzoq joyga borish, bir-birini uchratish ularning peshonasiga bekor yozilmagan, ularni o‘z taqdirlar uchrashtirgan edi.

Xulosa qilib aytganda, “Mashaqqatlar girdobi” romanidagi Gulruh obrazi asardagi boshqa ayol obrazlardan mardligi, aql-u zakovati, har qanday vaziyatda ham ayollik sha’ni, or-nomusi, qadr qimmatini saqlay olgan obraz sifatida gavdalantiriladi. Asarning ba’zi joylarida ayol matonatining ifodasi, qiyinchiliklarda ham mardonavor harakat qilishi o‘quvchini hayratga soladi. Adiba ushbu obraz zimmasiga “odam savdosи” girdobiga tushib qolgan insonlarni qutqarish vazifasini yuklatadi va buni udaalay oladi.

⁵⁹ Zulfiya Qurolboy qizi. Mashaqqatlar girobi. www.ziyouz.com. –B.148

⁶⁰ Zulfiya Qurolboy qizi. Mashaqqatlar girobi. www.ziyouz.com. –B.150

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Gulruhdagi ayollik fazillati, oqilona harakatlari, donoligi bir xudbin kimsani o‘z xatolarini tushunib yetgan holda o‘zini o‘zgartirishiga va xatosini to‘g‘irlashiga yordam beradi. Gulruh sabab barakda mahbuslardek kun kechirib ishlayotgan qanchadan-qancha insonlar o‘z oilasi bag‘riga qaytishga muvaffaq bo‘ladi. Roman haqida fikr bildirgan adabiyotshunos Umarali Normatov ham o‘z mulohazalarida Gulruh obrazi haqida to‘xtalib shunday deydi: “Asarning eng muhim, benihoya ibratli, yorqin jihatni shundaki, ana shu girdob zulmati iskanjasida ham o‘zligini, asl insoniy fazilatlarini yo‘qotmagan, zulmatni yoritishga, uning temir qafaslarini yorib chiqishga, yonib, tutqunlik azoblariga ko‘nikkan g‘aflat bandalarini uyg‘otishga qodir asl insonlar ham bor. Asardagi Gulruh ana shunday kuchlarning oldingi safida turuvchi yorqin siymo sifatida gavdalananadi.”⁶¹ Asarning yana bir ahamiyatli jihatni shundaki, adiba asar Davron tilidan hikoya qilayotgan bo‘lsa ham bu obrazning o‘y-fikrlari, voqealikka munosabati orqali Gulruh ruhiyatini, xarakteri va portretini to‘laqonli ochishga harakat qilgan. Mana shular orqali ham Zulfiya Qurolboy qizi ayol siyemosining yorqin ifodasini go‘zal va jonli tarzda gavdalantira olgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –T.: “O‘zbekiston”, 2002.
2. Zulfiya Qurolboy qizi. Mashaqqatlar girdobi. Ziyouz.com
3. Umarali Normatov. “Qalbdagi Benazir ziyo”. –”Yoshlik” jurnali, 2010-yil, 9-son
4. Ruhiy tahlil metodi xususida// O‘zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 1997.
5. Boboxonov M. “Hozirgi o‘zbek qissachiligidagi psixologizm” dissertatsiyasi

⁶¹ Umarali Normatov. “Qalbdagi Benazir ziyo”. –”Yoshlik” jurnali, 2010-yil, 9-son